

Sarsenbayeva Rayhon Maxanbetovna

ISFT instituti “Pedagogika va psixologiya” kafedrası dotsenti v.b., p.f.n.

rayhon.sarsenbaeva64@gmail.com. +99890 988 90 97

MUTAXASSISLIK FANLARINI O‘QITISHDA TURLI INTERAKTIV O‘QITISH METODLARIDAN FOYDALANISH

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada mutaxassislik fanlarini o‘qitishda turli interaktiv o‘qitish metodlaridan foydalanish yo‘llari haqidagi ma‘lumotlar berilgan. Maqolada interaktiv o‘qitish metodlari haqida bayon etilgan, xususan, “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Bahs-munozara”, “Bumerang”, “Rolli o‘yinlar”, “Charxpalak” kabi metodlar xususidagi ma‘lumotlar ifodalangan.

TAYANCH SO‘ZLAR: Ta‘lim oluvchi, ta‘lim beruvchi, mutaxassislik fanlari, interaktiv o‘qitish metodlari, zamonaviy metodlar, ta‘lim metodlari, metodik tavsiyalar, guruh, kichik guruh, “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Bahs-munozara”, “Bumerang”, “Rolli o‘yinlar”, “Charxpalak”.

ANNOTASIYA: В данной статье представлена информация о способах использования различных интерактивных методов обучения при преподавании профильных предметов. В статье описаны интерактивные методы обучения, в частности, информация о таких методах, как «Мозговой штурм», «Кластер», «Дискуссия», «Бумеранг», «Ролевые игры», «Чархпалак».

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Учащийся, преподаватель, профильные предметы, интерактивные методы обучения, современные методы, методы обучения, методические рекомендации, группа, малая группа, «Мозговой штурм», «Кластер», «Дискуссия», «Бумеранг», «Ролевые игры», «Чархпалак».

ANNOTATION: This article provides information on ways to use various interactive teaching methods when teaching specialized subjects. The article describes interactive teaching methods, in particular, information about such methods as "Brainstorming", "Cluster", "Discussion", "Boomerang", "Role-playing games", "Charhpalak".

KEYWORDS: Student, teacher, specialized subjects, interactive teaching methods, modern methods, teaching methods, methodological recommendations, group, small group, "Brainstorming", "Cluster", "Discussion", "Boomerang", "Role-playing games", "Charkhpalak".

Interaktiv¹ metodlari deganda – ta‘lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta‘lim jarayonining markazida ta‘lim oluvchi bo‘lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo‘llanilganda ta‘lim beruvchi ta‘lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta‘lim oluvchi butun dars va mashg‘ulot jarayoni davomida o‘zi faol ishtirok etadi. Ta‘lim oluvchi markazda bo‘lgan yondoshuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

¹ Interaktiv – ing. interact co‘zidan olingan bo‘lib, inter-o‘zaro yoki umumiy, act-faoliyat yuritish, ya‘ni birgalikda yoki umumiy faoliyat yuritish degan ma‘nosini beradi.

- ta'lim samarasi yuqoriroq bo'lgan o'qish-o'rganish;
- -ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimning ham e'tiborga olinishi;
- -o'qish shiddatini ta'lim oluvchining istagi va ehtiyojiga qarab muvofiqlashtirilishi;
- ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o'rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi kabilar.

Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash, o'qitish jarayonida yuqori natajalarga olib keladi. Ta'lim metodlarini har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, uni turli-tuman zamonaviy metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasining ko'tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkili qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda interaktiv metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni ommaviy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi.

Uzliksiz ta'lim tizimida umumiy o'rta ba o'rta maxsus ta'lim maktablarining o'rni yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risi"dagi Qonunning 11-moddasi: "Oliy ta'lim" deb nomlanib, unda:

Oliy ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlanishini ta'minlaydi.

Oliy ma'lumotli kadrlarni tayyorlash oliy ta'lim tashkilotlarida (universitetlar, akademiyalar, institutlar, oliy maktablar) amalga oshiriladi. Umumiy o'rta (o'n bir yillik ta'lim), o'rta maxsus (to'qqiz yillik tayanch o'rta va ikki yillik o'rta maxsus ta'lim), boshlang'ich professional ta'lim (to'qqiz yillik tayanch o'rta va ikki yillik boshlang'ich professional ta'lim) olgan shaxslar, shuningdek ushbu Qonun kuchga kirguniga qadar o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi (to'qqiz yillik umumiy o'rta va uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi) olgan shaxslar oliy ma'lumot olish huquqiga ega.²

Interaktiv metodlarni qo'llash bo'yicha umumiy metodik tavsiyalar:

1. Ishlash uchun joyni tayyorlashga jiddiy qarash kerak. Bu avvaliga bekorchi ko'ringandek oddiy masala emas. Auditoriyani shunday tayyorlash kerakki, bunda ta'lim oluvchilar kichik yoki katta guruhlarda ishlash uchun o'tirishlariga oson bo'lishi kerak. Ya'ni ta'lim oluvchilarga jismonan qulay sharoit yaratilishi kerak. Mashg'ulotda kimdir guruhga teskari o'tirib qolib boshqalarga boshini yonboshga burib o'tirishi yomondir. Shuning uchun ham, stolni shunday qo'yish kerakki, ular o'ziga qulay vaziyatda kichik guruh bilan oson munosabatda bo'lishi kerak. Ijodiy ish uchun materiallar oldindan tayyorlangan bo'lsa yaxshidir.

2. Jarayon va reglamentga jiddiy munosabatda bo'lish lozim. Bu haqda boshidan kelishib olish kerak va uni buzmaslik lozim. Masalan, hamma ta'lim oluvchilar har bir nuqtai nazarga sabrli bo'lib, so'z erkinligini, uning qadrini hurmat qilishlari kerak.

² O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risi"dagi Qonuni. O'RQ-637 son 23.09.2020.

3. Ta'lim oluvchilarning guruhlarga bo'linishiga jiddiy e'tibor bering. Avvaliga, uni o'zi xohishiga ko'ra qurish kerak. Keyin tasodifan tanlash tamoyilidan foydalanish maqsadga muvofiq.

4. Ta'lim oluvchilarning hammasi u yoki bu darajada ishga jalb qilingan bo'lishi kerak.

5. Ta'lim oluvchilarning ruhan tayyorgarligiga ko'maklashish lozim. Gap shundaki, mashg'ulotga kelganlarning hammasi ham u yoki bu ish shakliga bevosita kirishishga ruhan tayyor emaslar. Bunga ma'lum darajada xulqining an'anaviyligi ta'sir ko'rsatadi. Bu borada mashq qilishlar, ta'lim oluvchilarning ishda faol ishtiroklari uchun doimiy rag'batlantirishlar, ta'lim oluvchining o'zini namoyon etish uchun imkoniyat yaratish foydali bo'ladi.

6. Interaktiv metodlar asosida mashg'ulotlar o'tkazilganda guruhda ta'lim oluvchilar soni ko'p bo'lmasligi kerak. Ta'lim oluvchilar soni va o'qitish sifati bir-biriga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'ladi. Odatda agarda ishda ta'lim oluvchilar soni 30 kishidan oshmasagina, ish samarali bo'ladi. Faqat shu shart bajarilganda eng maqbul tarkibi 4-6 kishidan iborat, kichik guruhlarda samarali ish olib borish mumkin. Axir, har kimni tinglash, har bir guruhga muammoni bayon etish bilan chiqishga imkon berish muhim.

2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi O'zbekiston respublikasi Prezidentining PF 60-sonli Farmonining 49-maqsadi: 2026 yilgacha nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari sonini kamida 50 taga etkazish, - deb belgilangan. Unda:

2022 yilda Navoiy, Samarqand, Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlari va Toshkent shahrida kamida 1 tadan nodavlat oliy ta'lim tashkilotini tashkil etish orqali ularning jami sonini 34 taga etkazish.

Qoraqalpog'iston Respublikasida 5 ta nufuzli mahalliy va xorijiy oliygohlarning filiallarini hamda Toshkent viloyatida 5 ming nafar talabaga mo'ljallangan Nurafshon davlat universitetini tashkil etish.

Andijon viloyatida 4 ta xususiy oliygoh tashkil etish. Natijada hududdagi yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrovini 23 foizdan 50 foizga etkazish.

Namanganda kelgusi 5 yilda 7 ta oliygoh tashkil etib, jami oliy o'quv yurtlari soni 10 taga etkazish.

Samarqand shahrida 20 ming nafar talabaga mo'ljallangan "Yoshlar shaharchasi"ni barpo etib, unda kamida 4 ta xorijiy universitetning filial va kampuslarini joylashtirish. Xorijiy davlatlarning etakchi texnika universiteti bilan birgalikda Samarqand texnologiya universitetini tashkil etish.

Urganch davlat universiteti qoshida Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi xalqaro matematika markazi va jamg'armasini, O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining Urganch filiali va uning qoshida Urganch boshlang'ich raqs san'ati maktab-internatini tashkil etish.

2026 yilga qadar respublika hududlarida kamida 1 tadan nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarini tashkil etish orqali ularning sonini 50 taga etkazish.³

³ 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi O'zbekiston respublikasi Prezidentining PF 60-sonli Farmoni. 2022 yil 28-yanvar.

Interaktiv o‘qitish ta’lim beruvchi bilan ta’lim oluvchi o‘rtasidagi doimiy o‘zaro munosabatlarni ko‘zda tutadi va shuning uchun u auditoriya bilan o‘zaro munosabat o‘rnatishni bilishi kerak.⁴

“O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF–158-sonli Farmonining 1-ilovasiga muvofiq “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi” 2030 yilgacha erishiladigan maqsadlarning samaradorlik ko‘rsatkichlarining I-bandida: “Har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish” dagi “Ta’lim tizimi islohotlari” 1.1. qismining “Pedagog kadrlar maqomini oshirish, ularning bilimi va malakasini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish”da quyidagilar belgilab berildi:

- 1). 1 000 nafar tarbiyachi va o‘qituvchilarni xorijiy mamlakatlarga malaka oshirish va stajirovkaga yuborish.
- 2). Maktabgacha ta’lim tashkilotlari va umumiy o‘rta ta’lim muassasalari pedagog xodimlarining o‘rtacha ish haqini 2 barobar oshirish.
- 3). 500 ming nafar maktabgacha ta’lim tashkilotlari va umumiy o‘rta ta’lim muassasalari xodimlarining malakasini uzliksiz oshirish.
- 4). Ehtiyoj yuqori bo‘lgan yo‘nalishlar va olis hududlardagi abituriyentlar uchun pedagogik ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha kadrlarni to‘liq davlat granti asosida tayyorlash tizimini joriy qilish”⁵.

Ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan interaktiv metodlarga:

Har xil chizmalar, jadvallar, grafik organayzerlar yordamida amalga oshiriladigan interaktiv metodlarga “Ven deogrammasi”, “T-chizma metodi” kabilar;

Matn bilan ishlashga yo‘naltiriladigan interaktiv metodlarga “Keys-stadi”, “Insert” kabilar;

O‘quv jarayonida muammolar va muammoli vaziyatlarni yechishga yo‘naltirilgan interaktiv metodlarga “SWOT tahlili”, “Muammoli ta’lim” kabi metodlar kiradi.

Ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya jarayonini samaradorligini oshirishda yuqorida keltirilgan yondashuvlar o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ta’lim tashkilotlarida faoliyat yuritish, ta’lim-tarbiya jarayonlarini samarali tashkil etish va boshqarish bilan bog‘liq muammolarni bevosita va bilvosita hal etishga qaratilgan individual-guruhli ishlarni tashkil etish va boshqarish muhim sanalib, buning uchun talabalar quyidagi pedagogik qobiliyatlarni egallagan bo‘lishi zarur deb topiladi.⁶

⁴ R.M.Sarsenbayeva. Iqtisodiy fanlarni o‘qitishda qo‘llaniladigan interaktiv metodlar. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – T.: TMI, 2015. – 152 b.

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF–158-sonli “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi” to‘g‘risidagi Farmoni

⁶ Sarsenbayeva R.M. The importance of ability in the teacher's pedagogical activity (O‘qituvchi pedagogik faoliyatida qobiliyatning ahamiyati). Spanish Journal of Innovation and Integrity (SJII); Ispaniya innovatsiyalar va yaxlitlik jurnali (SJII); I/P № 7.6, ISSN Online: 2792-8268. Jild: 31 Nashr: 07| iyul-2024.

O‘quvchining o‘sishi va tarbiya olishi uning faoliyati jarayonida amalga oshiriladi, ijtimoiy foydali mehnat, ijtimoiy ishlar, o‘yin va qish faoliyati, bo‘sh vaqtdan oqilona foydalanish kabilar o‘quvchilarning hayotida katta ahamiyatga ega bo‘ladi. O‘quvchilarning xilma xil faoliyatlarini to‘g‘ri tashkil etish, uni shaxs sifatida alohida sifatleri, xarakter xislatlari, odatlarini tarkib toptirishga e‘tibor yaratish tarbiyaning muhim vazifasi hisoblanadi.⁷

Interaktiv o‘qitish metodlari:

Ta‘lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, o‘rgatuvchi ta‘lim jarayonining markazida ta‘lim oluvchi bo‘lgan metodlarga interaktiv o‘qitish metodlari deyiladi

Interaktiv o‘qitish metodlariga misollar:

Aqliy hujum	Bumerang
Pinbord	Charxpalak
Klaster	Yelpig‘ich
Qor bo‘ron	Bahs-munozara
Venn diagrammasi	Rolli o‘yinlar
Kichik guruhlarda ishlash	Ishbilarmonlik o‘yinlari va boshqalar

Interaktiv o‘qitish metodlariga amaliy misollar:

“AQLIY HUJUM” metodi – biror muammo yoki savol bo‘yicha o‘quvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to‘plab, ular orqali ma‘lum bir yechimga kelinadigan metod.

Ushbu metod g‘oyalarni ishlab chiqish metodidir. Ta‘lim oluvchilar birlashgan holda qiyin muammoni yechishga harakat qiladilar: uni yechish uchun shaxsiy g‘oyalarini ilgari suradilar.



Aqliy hujum mashg‘ulotlarda ta‘lim oluvchilar faolligini oshirishga, charchoqni yo‘qotishga, g‘oyani izlashga sharoit yaratadi.

Samarali aqliy hujum uchun bosqichlar:

- ✚ ta‘lim oluvchilarni majburiy bo‘lmagan tarzda o‘tkazing;
- ✚ fikrlarni bayon qilish uchun qog‘oz va doskani tayyorlang;
- ✚ aqliy hujumda ta‘lim oluvchilarga muammoni etkazishga tayyorlaning;
- ✚ ish tartibini aniqlang;
- ✚ fikrlar tashlanganda hech kandy baholashga urinmang;
- ✚ doimiy fikrlash ozodligiga erishing;
- ✚ qancha aqli fikr ko‘p bo‘lsa, shuncha yaxshi bo‘lishini kuzating;

⁷ Sarsenbayeva R.M. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: Iqtisod-moliya, 2019. – 372 b.

- ✚ “ushlang”, “tuting” boshqalarning fikrlarini rivojlantiring;
 - ✚ fikrlar to‘g‘risida surishtiring va tezda ularni kelishi bilan yozing;
 - ✚ qog‘oz varag‘i to‘ldirilganda, uni muhokama uchun qo‘ying;
 - ✚ o‘z g‘oyalaringizni qo‘shib yangi g‘oya va g‘oyalarni rag‘batlantiring;
 - ✚ boshqalarning fikrini hurmat qiling va kulgu bo‘lishiga yo‘l qo‘ymang.
- ✚ o‘zingizning fikrlaringizni boshqa tomonga tarqab ketmasidan bir joyga jamlang va boshqalar.



qliy hujumning asosiy ko‘rinishlaridan biri juftlikdagi aqliy hujumdur. Agar ish daliliy axborotga bog‘liq bo‘lsa, unda ta‘lim oluvchilarga dalillar ro‘yxatini tuzishga taklif beriladi. Ikki daqiqadan so‘ng individual ishdan keyin, ular bir-birlari bilan muloqotda bo‘lib muhokama qiladilar va o‘zlarining ro‘yxatlarini birlashtiradilar.

“KLAUSTER” metodi – ta‘lim oluvchilarda berilgan mavzu bo‘yicha erkin fikrlash va turli javoblar o‘rtasida bog‘liqlikni o‘rganish va guruhlash imkoniyatini yaratuvchi metod.


Ta‘lim oluvchilarga tarqatma materiallar asosida muammoli savollar beriladi va ularning fikrlari chegaralanmagan holda bayon etiladi.

Klasterlarga bo‘lish. Bu pedagogik strategiya bo‘lib, ta‘lim oluvchilarnkng u yoki bu mavzu bo‘yicha erkin va bemaol o‘ylashlariga yordam beradi. U faqat g‘oyalar orasidagi bog‘lanishlarni fikrlashni ta‘minlash imkoniyatini beradigan tuzilmani aniqlab olishni talab qiladi. U fikrlashning oddiy shakli emas, balki miya faoliyati bilan boglanadi.

Klasterlarga bo‘lishdan axborotlarni chorlash bosqichida ham, fikrlash bosqichida ham foydalaniladi. U muayyan mavzu sinchiklab o‘rganilguncha fikrlash faoliyatini ta‘minlashda foydalanilishi mumkin.

Klasterlarga bo'lish ta'lim oluvchilarning tasavvurlarini yangi bog'lanishlari yoki ularning grafik ifodalari ko'rinishlarini ta'minlovchi sifatida ham o'tganliklarini yakunlash vositasi sifatida qo'llanilishi mumkin. Bu o'z bilimlariga, muayyan mavzu to'g'risida tasavvuriga va uni tushunishga yo'l ochadigan nazardagi strategiyadir.

KLASTER metodiga misol



Klasterlarga bo'lish quyidagi metodlarda amalga oshiriladi:

1. Xayolingizga kelgan barcha fikrlarni yozib olish.

Bu fikrlarni muxokama qilmang, shunchaki yozib olavering.

Xatni (matnni) kechiktiradigan imlo va boshqa omillarga ham parvo qilmang.


Sizga berilgan vaqt nihoyasiga etmagunga qadar yozishdan to'xtamang. Miyangizga fikr kelishi to'xtab qolsa, toki yangi fikrlar kelgunga qadar qog'ozda nimalarnidir chizib o'tiring.

Imkoni boricha, bog'lanishi mumkin bo'lgan g'oyalarni tizib chiqing, g'oyalarning oqimi sifati va ular orasidagi aloqalarni chegaralab qo'ymang.

Klasterlarga bo'lish, Stil (1991) ning ta'biricha, bu juda moslashuvchan strategiyadir. Uni individual tarzda ham, guruhda ham qo'llash mumkin. Guruh faoliyatida u guruh g'oyalarning tirgovi sifatida xizmat qiladi. Bu esa ta'lim oluvchilarni har bir amalda bo'lgan bog'lanishlarga, aloqalarga yaqinlashtiradi.

“BUMERANG” metodi va unga misol

"Bumerang" metodi tanqidiy fikrlash, mantiqni shakllantirishga imkoniyat yaratadi va ushbu metod xotirani, g'oyalarni, fikrlarni, dalillarni yozma va og'zaki shakllarda bayon qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.



“Bumerang” metodi – berilgan materialni ta’lim oluvchilarni kichik guruhlarda mustaqil o’rganishiga va boshqalarni o’rgatishiga yo’naltirilgan metod

Mazkur metod bir mashg’ulot davomida o’quv materialini chuqur va yaxlit holatda o’rganish, ijodiy tushunib etish, erkin egallashga yo’naltirilgan. U turli mazmun va xarakterga (muammoli, munozarali, turli mazmunli) ega bo’lgan mavzularni o’rganishga yaroqli bo’lib, o’z ichiga og’zaki va yozma ish shakllarini qamrab oladi hamda bir mashg’ulot davomida har bir ta’lim oluvchining turli topshiriqlarni bajarishi, navbat bilan ta’lim oluvchi yoki ta’lim beruvchi rovida bo’lishi, kerakli ballni to’plashiga imkoniyat beradi.

"Bumerang" metodi tanqidiy fikrlash, mantiqni shakllantirishga imkoniyat yaratadi; xotirani, g’oyalarni, fikrlarni, dalillarni yozma va og’zaki shakllarda bayon qilish ko’nikmalarini rivojlantiradi.

Ta’lim bilan bir qatorda mazkur metod tarbiyaviy xarakterdagi kator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi: jamoa bilan ishlash mahorati; muomalalik; xushfe’llik; ko’nikuvchanlik; o’zgaralar fikriga hurmat; faollik; rahbarlik sifatlarini shakllantirish; ishga ijodiy yondashish; o’z faoliyatining samarali bo’lishiga qiziqish; o’zini xolis baholash.

Asosiy tushunchalar quyidagilar:

ochiq savollar – bu savollar muomala, so’zlashuvni davom ettirishga imkon beradi. ularga qisqa, bir xil javob berish mumkin emas

yopiq savollar – bu savollar oldindan “ha” yoki “yo’q” tipidagi turi, ochik, javoblarni berishni ko’zda tutadi.

ko’ndalang so’roq – bir-biriga guruhlab beriluvchi qisqa savollar qatori bo’lib, bu o’ziga xos axborotlar izlash hamda dalillarni, opponentlar pozitsiyasini aniqlash va muayyan qarorlar qabul qilish uchun ajoyib imkoniyatdir. Ko’ndalang so’roq paytida munozaraga kirishish mumkin emas. Bu vaqtda faqat savollar beriladi, munozaraga kirishilmaydi.

“ROLI O’YINLAR” metodi:

Unda, aniq shaxsning xulqi, xatti-harakati va majburiyatlarining bajarilish taktikasi mashq qilinadi. Rol o’yinlari ta’lim oluvchilarning shaxsiga katta ta’sir ko’rsatadi. Bu o’yinlarda o’yinda qatnashuvchilarning o’zi muammolarni o’ylab topishadi, ular faoliyati va qaror qabul

qilishi cheklanmaydi. Ularning o‘zi maqsad o‘qib, uni amalga oshirish uchun o‘yin qoidasi doirasida turli vositalardan foydalanishadi.⁸



“Rolli o‘yinlar” metodi -

ta’lim oluvchilar tomonidan mavzu yuzasidan uchraydigan hayotiy vaziyatlarning har xil shart-sharoitlarini sahnalashtirish orqali ko‘rsatib beruvchi metod

O‘yindagi vaziyat o‘yin ta’lim oluvchilari tomonidan alohida pedagogik metod sharoitida emas, balki kundalik real hayotiy vaziyatni davomi kabi qabul qilinadi.

Rolli o‘yinlar – bu yoshlarni tarbiyalash va bosh vaqtini o‘tkazishni tashkil qilishning shakli ham. Bu o‘yinlar o‘rganish, tarbiyalash, dam olishda qo‘llaniladi va ular katta pedagogik potentsialga ega. O‘yinlar o‘quv jarayonida o‘qitish, o‘rganish metodi. Uni turli darajada va maqsadlarda qo‘llash mumkin.

Shuningdek, bunday o‘yinlar muammoli topshiriqlarning bir ko‘rinishidir. Sahnalashtirish va obrazli chiqishlar bunday mashg‘ulotlarning asosiy belgisidir. Ishbilarmonlik, bilimdonlik, topqirlik, quvnoqlik, hozirjavoblik, ijodkorlik, artistizm, ishchanlik va yaratuvchanlik kabi fazilatlarni namoyish qilishga keng imkon beradi. O‘qituvchi har bir ta’lim oluvchining salohiyatiga mos vazifa topshirishi juda muhimdir. Birinchi va ikkinchi darajali ta’lim oluvchilar bo‘lmasligini ta’minlash ham talab qilinadi. O‘quv mashg‘uloti hayotdagi aniq vaziyatga ko‘proq yaqinlashadi.

“BAHS-MUNOZARA” interaktiv metodi:

Grafikli tashkilotchi bo‘lib, kelgusi bahs-munozaraga tayyorgarlik ko‘rishda qo‘llanadi. Qarama-qarshi vaziyatlar va xulosalar sxemasi, biror-bir vaziyatni himoya qila olishni ko‘zda tutiladi. T-chizma xulosalardan tashkil topadi. Bosqichlar:

T-chizmani tuzish.

Dallilarni topib, bir chiziq chizib, varaqning o‘rtasida “ha” va “yo‘q” hamda xulosalarni yozib qo‘yish (siz qaysi vaziyatni tanlaysiz). Tanlagan vaziyatga nisbatan dalil keltirish.

⁸ R.M.Sarsenbayeva. Iqtisodiy fanlarni o‘qitishda qo‘llaniladigan interaktiv metodlar. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – T.: TMI, 2015. – 152 b.

Masalan: Shum bolani qahramon deb hisoblaysizmi?

Ha		Yo‘q
1		1
2		2
3		3
	X	

Baholash chizig‘i

Munozaraga strategik jihatdan tayyorgarlik ko‘rish, shu bilan birga esseni yozishga tayyorlanish. Oraliq bahs-munozara.

“Bahs-munozara” metodi:

biror mavzu bo‘yicha ta’lim oluvchilar bilan bahs-munozara yoki fikrlar almashinuvi tarzida o‘tkaziladigan metod



Bahs-munozara uchun mavzuni tanlash.

Ta’lim oluvchilar munozara mavzusi bo‘yicha tezisni shakllantirishlari, tasdiqlashlari va ularni daftarlarga yozib olishi kerak bo‘ladi.

Ta’lim oluvchilar bahs mavzusi bo‘lishi kerak bo‘lgan mavzubilan uyda (yoki oldin o‘tkazilgan mashg‘ulotlarda) tanishadilar. Bahs arafasida ta’lim bsruvchi bo‘lajak mavzu to‘g‘risida ularga axborot berar ekan, bahslar qay yo‘sinda o‘tishini qisqacha tushuntiradi (bu albatta, bahslar birinchi marta o‘tkaziladigan bo‘lsa, juda muhimdir).

Rahbar guruhni ikkiga ajratadi va guruhning ikki tomoniga qator qo‘yilgan stollar yoniga o‘tkazadi va har bir guruh ta’lim oluvchilari qaysi nuqqai nazarni himoya qilishlarini belgilaydi (masalan, 1-guruh harbiy holat joriy qilinishi tarafdorlari, 2-guruh bunga qarshilardir).

Shundan so‘ng rahbar ta‘lim oluvchilarni juftliklarga bo‘lib, har bir juftlikda qarama-qarshi qarashlar tarafdorlari bo‘lishi kerak. Juftliklarni tartib raqami yoki alifbo harflari bilan belgilanadi. Agar guruhdalar soni toq bo‘lsa, ta‘lim beruvchi munozaraga etishmagan sherik huquqida kirishi lozim. U 1-guruhdagilarga (bizning misolimizda – harbiy holatni joriy qilish tarafdorlari) har biri juft raqami bilan belgilangan katak qog‘oz varaqlarini tarqatadi.

Ular guruhning ikki tomonida o‘tirib, juftma-juft yozma dialopsh boshlaydilar 1-guruhga o‘zlari ma‘qullayotgan nuqtai nazar foydasiga bitta ochiq dalilni shakllantirish uchun 5 daqiqa vaqt beriladi. Ular bu dalilni qog‘oz varag‘iga paragraf shaklida yozadilar. Bu vaktida ikkinchi guruh o‘zlari bahslar jarayonida bayon etishlari mumkin bo‘lgan o‘z nuqtai nazarlariga dalil keltirishlari mumkin.

Yozilgan varaqlar qarshi tomondagi sheriklarga (harbiy holatning joriy qilinishiga qarshi chiquvchilarga) beriladi. Ularga juftlik bo‘yicha sheriklarining dalillariga qarshi javob topish va yozish uchun hamda o‘z qarshi dalillarini bayon qilishlari uchun 8 daqiqa vaqt ajratiladi.

Dalillar almashishning bunday tartibi 2-3 marta takrorlanadi, bunda har bir ta‘lim oluvchi sherigining dalil-isbotiga javob qaytarishi va o‘zining qarama-qarshi dalilini keltirishi kerak. Ularning bilimlarini aniqlash uchun 3-4 bosqich etarlidir. Oxirgi bosqichda ularga yakuniy paragrafni yozish imkoni beriladi. Shundan so‘ng ish yig‘ib olinadi.

Bahslarda xulosa chiqarishning yaxshi shakli ikkala tomonga qaratilgan savoldir: “Qarshi tomonning eng yaxshi dalil-isbotlari qaysilar bo‘ldi?”.

Ishni ta‘lim beruvchi yakka tartibda yoki juftlik bo‘yicha baholashi mumkin. Agar u ishni baholashni rejalashtirgan bo‘lsa, u haqda ta‘lim oluvchilarni darsning boshidayoq ogohlantirishi kerak.


Interaktiv metodlarni mashg‘ulot maqsadiga muvofiq tanlash. Bunda, interaktiv mashg‘ulot turlari ko‘p bo‘lib, ularni dars mavzusining xususiyatlari hamda ko‘zda tutilgan maqsadlarga muvofiq tanlanadi va tegishlicha tayyorgarlik ko‘riladi. Interaktiv mashg‘ulotda ishtirok etish uchun o‘quvchilarning tayyorliklariga o‘ziga xos talablar qo‘yiladi, bular ma‘shg‘ulotda faol ishtirok etish uchun zarur bilimlarni o‘zlashtirganlik, muloqotga tayyorlik, o‘zaro hamkorlikda ishlash, mustaqil fikrlash, o‘z fikrini erkin bayon qilish va himoya qila olish ko‘nikmalari va boshqalardan iborat.⁹

“CHARXPALAK” interaktiv metodi:

Ushbu metod ta‘lim oluvchilarni o‘tilgan barcha mavzularni yodga olishga, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to‘g‘ri javob berishga va o‘z-o‘zini baholashga o‘rgatishga hamda qisqa vaqt ichida ularni baholay olishga qaratilgan.

Maqsadi – ushbu mashg‘ulotda ta‘lim oluvchilarni dars jarayonida mantiqiy fikrlash, o‘z fikrlarini mustaqil ravishda erkin holda bayon eta olish, o‘zlarini baholash hamda yakka va guruhlarda ishlashga, boshqalar fikriga hurmat bilan qarashga, ko‘p fikrlaridan kerakligini tanlab olishga o‘rgatishdir.

⁹ R.M.Sarsenbayeva. O‘quv-tarbiya jarayonida turli interaktiv o‘qitish metodlarining o‘rni. Journal of Innovations in Social Sciences (Ijtimoiy fanlarda innovatsiya onlayn ilmiy jurnal). I/F № 7.6. ISSN Online: 2181-2594. Jild:04 Nashr: 04| Aprel-2024.



“CHARXPALAK” interaktiv metodi -

ta’lim oluvchilarda o’tilgan mavzu bo’yicha bilimlarini mustahkamlash, tekshirish va bir-birlarini baholash imkonini beruvchi metod

Alohida fanlardan dars beruvchi o’qituvchilar bolalarning qiziqishlarini o’rganib chiqib, ularni turli to’garak va tadbirlarga jalb qilishadi. Maktabda turli tarbiyaviy tadbirlar, ko’rik musobaqalar o’tkazishadi. Bu tadbirlarni o’tkazishda ota-onalar va sobiq o’quvchilar yordamidan foydalanishadi, maktabga mashhur kishilarni chaqirishadi. Maktab yoshidagi bolalarning asosiy ijtimoiylashtiruvchi omili bolalar submadaniyat¹⁰ini shakllantiruvchi tengqurlar jamoasidir. Ijtimoiy pedagog bu hodisalarning vazifalarini bilishi, ular o’quvchilarning shaxsiy fazilatlarini va ijtimoiy munosabatlarini rivojlantirishdagi o’rinlarini ko’ra olishi lozim.¹¹

O’quv mashg’ulotlarining barcha turlarida dars boshlanishi yoki dars oxirida, yoki o’quv predmetining biror-bir bo’limi tugallanganda o’tilgan mavzuni o’zlashtirilganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash, yoki oraliq va yakuniy nazorat o’tkazish uchun mo’ljallangan. Ushbu metodni butun bir mashg’ulot jarayonida yoki mashg’ulotning bir qismi sifatida yakka, kichik guruh, jamoa shaklida tashkil etish mumkin.

O’tkazish metodi:

Ta’lim oluvchilarni kichik guruhlarga bo’lib olinadi (sharoitga qarab).

Mashg’ulotni o’tkazishga qo’yilgan talablar, qoidalar bilan tanishtirish.

Guruh ta’lim oluvchilari mustaqil ravishda tarqatma materiallardagi vazifani bajaradilar.

¹⁰ **Submadaniyat** (lotincha: *sub* — „ost“ va madaniyat) jamiyatshunoslik, antropologiya va madaniyatshunoslik atamasi bo’lib, jamiyat madaniyatining keskin farqlanuvchi bir qismini anglatadi. Submadaniyat ichida o’ziga xos kiyinish, jargon, hatti-harakat va boshqa madaniy normalar bo’lishi mumkin.

¹¹ R.M.Sarsenbayeva. Umumta’lim maktablarida o’smir bolalar bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat. O’zbekiston, OAK jurnali. Contributions of eastern thinkers to natural sciences (Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali). 2023, jild 03, nashr 11.

Har bir guruh ta'lim oluvchisi o'zi ishlab chiqqan tarqatma materialning o'ng burchagiga guruh raqamini, chap burchagiga esa o'zining biror-bir belgisini chizib qo'yishi kerak.

Vazifa bajarilgan tarqatma materiallarni boshqa guruhlariga tarqatiladi.

Yangi guruh a'zolari berilgan materiallarni o'rganib, unga o'z o'zgartirishlarini kiritadilar.

Tuzatish, o'zgartirish kiritilgan materiallarni yana bir marta boshqa guruhlariga uzatiladi (guruhlar soniga qarab)

Guruhlarning materiallarni bir-birlari bilan oxirgi almashganlaridan so'ng har bir guruh ta'lim oluvchisi o'zining birinchi to'ldirgan materiallarini (guruh raqami va o'zi qo'ygan belgisi asosida) tanlab oladilar.

Har bir guruh ta'lim oluvchisi tarqatma materialdagi o'zi belgilagan javoblarini boshqa guruh ta'lim oluvchilari kiritgan tuzatishlari bilan taqqoslaydilar va tahlil qiladilar.

Ta'lim beruvchi tarqatma materialda berilgan vazifani o'qib, guruhlar bilan birgalikda to'g'ri javobni belgilaydilar.

Har bir ta'lim oluvchi to'g'ri javob bilan belgilangan javoblar o'rtasidagi farqni aniqlab, shunga mos ballni to'playdi va o'z-o'zini baholaydi.

Izoh: tarqatma materialda ta'lim oluvchilar belgilagan to'g'ri javoblar bilan ta'lim beruvchi hamkorligida aniqlangan to'g'ri javoblarning farqi 0,55 foizdan yuqori bo'lsa, ta'lim oluvchi ushbu o'quv materialini o'zlashtira olgan, undan kam bo'lsa, o'zlashtira olmaganini bildiradi, masalan, vazifalar soni 30 ta, belgilangan javobning 17-20 tasi to'g'ri javob bilan to'g'ri kelgan bo'lsa, demak, ta'lim oluvchi ushbu vazifani bajargan va o'quv materialini o'zlashtira olgan, agar undan kam bo'lsa, o'zlashtira olmagan hisoblanadi, shuningdek, 21-24 tasi to'g'ri bo'lsa yaxshi, 25-30 tasi to'g'ri bo'lsa a'lo o'zlashtirgan hisoblanadi.

Ta'lim oluvchilar o'z baholari yoki ballarini belgilab olganlaridan so'ng, ta'lim beruvchi vazifa bajarilgan qog'ozlarni yig'ib oladi va ball (baholar)ni guruh jurnaliga ko'chirib qo'yadi.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlashimiz mumkinki, oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislik fanlaridan dars berayotgan yosh proffessor-o'qituvchilar dars jarayonida turli interaktiv o'qitish metodlaridan foydalanishlari ta'lim sifatining oshishiga olib kelishi hech kimga sir emas. Shunday ekan, yosh professor-o'qituvchilar dars jarayonida turli interaktiv o'qitish metodlaridan doydalansa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risi"dagi Qonuni. O'RQ-637 son 23.09.2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-sonli "O'zbekiston – 2030 strategiyasi" to'g'risidagi Farmoni
3. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiasi to'g'risidagi O'zbekiston respublikasi Prezidentining PF 60-sonli Farmoni. 2022 yil 28-yanvar.
4. Sarsenbayeva R.M. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisod-moliya, 2019. – 372 b.
5. R.M.Sarsenbayeva. Iqtisodiy fanlarni o'qitishda qo'llaniladigan interaktiv metodlar. O'quv-uslubiy qo'llanma. – T.: TMI, 2015. – 152 b.

6. Sarsenbayeva R.M. The importance of ability in the teacher's pedagogical activity (O'qituvchi pedagogik faoliyatida qobiliyatning ahamiyati). Spanish Journal of Innovation and Integrity (SJII); Ispaniya innovatsiyalar va yaxlitlik jurnali (SJII); I/P № 7.6, ISSN Online: 2792-8268. Jild: 31 Nashr: 07| iyul-2024.
7. R.M.Sarsenbayeva. O'quv-tarbiya jarayonida turli interaktiv o'qitish metodlarining o'rni. Journal of Innovations in Social Sciences (Ijtimoiy fanlarda innovatsiya onlayn ilmiy jurnal). I/F № 7.6. ISSN Online: 2181-2594. Jild:04 Nashr: 04| Aprel-2024.
8. R.M.Sarsenbayeva. Umumta'lim maktablarida o'smir bolalar bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat. O'zbekiston, OAK jurnali. Contributions of eastern thinkers to natural sciences (Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali). 2023, jild 03, nashr 11.